



PEDOGOGLARDA O'QITUVCHI ODOBI FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Mirsaidova Zuhraxon Abralxonovna

Yashnabod tumani 145-son umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim pedagoglarida o'qituvchi odobi fazilatlarini rivojlantirish yo'llari va pedagog odobining tarixiy ildizlari, Pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishning xususiyatlari, Jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati, O'quvchilarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish yo'llari ko'rsatib berilgan, ishni tashkil qilishga doir tavsiyalar berilgan.*


Kalit so'zlar: *pedagog, boshlang'ich ta'lim, xulq-atvor, ta'lim va tarbiya, metodika, uslub.*

Jahonning eng rivojlangan mamlakatlari tarixiy tajirbasi shundan dalolat berib turibdiki, ular mustaqillik va taraqqiyot yo'liga qadam qo'yishlari bilan asosiy e'tibor va mablag'larni birinchi navbatda, yoshlarni o'qitish va tarbiyalashga sarflaganlar. Va bunday siyosat tarixiy tajirbada o'zini oqladi iymon-e'tiqodli, bilimli, axloqli yoshlar, malakali mutaxassislar aql-zakovat bilan ish yuritib, o'z vatanlarining qudratini oshirdilar, o'z xalqlari uchun yuqori turmush darajasini ta'minlay oladilar.

O'zbekiston Respublikasi hukmati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish uchun, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, barkamol, ishbilarmon inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi, bilimdoni bo'lmog'i zarur. O'qituvchi kasbiy axloq odobi normalarini mukammal egallagan bo'lsagina, u kasb fidoyisi bo'la oladi. Bugungi kunda o'qituvchining ana shunday fidoyiligi har qachongidan muhim.

Axloq ijtimoiy ong shakillaridan biri bo'lib, inson turmushining barcha sohalarida kishining xulqi, hatti-harakatlarini tartibga solib, boshqarib turuvchi, Vatanga, mehnatga, tabiatga, odamlarga munosabatini yo'naltiruvchi qonun – qoidalar, tamoyillar, yo'l-yo'riqlar, normalar, pand-nasihatlar majmuidan iborat. Axloq umuminsoniy va milliy xarakterga ega bo'lib, kishilarning tarixan qaror topgan va har bir odam egallashi lozim bo'lgan axloqiy ideallari, orzu-umidlari to'g'risidagi tasavvurlar, tushunchalar, bilimlar, qarashlarni o'z ichiga oladi.

Odob deganda rasm-taomil, xulq-odatlar majmui, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqozasi bilan turmush sharoitining alohida ta'siri, an'analari negizida odamlar o'rtasida paydo bo'lgan muomala – munosabatlarning xususiyatlari tushuniladi. Odob





kishilarning amaliy xatti-harakatlari, muomala munosabatlari deb ham qaraladi. Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar ham bor. Bunday axloq-kasb axloqi deyiladi.

Pedagogik amaliyotda "O'qituvchi odobi" tushunchasi tor va keng ma'nolarda qo'llaniladi. Tor ma'noda o'qituvchi xulqining amaliy jihatini, keng ma'noda esa o'qituvchining kasb axloqini anglatadi. O'qituvchi odobi –ning muhim, asosiy belgilari qatoriga quyidagilar kiradi: umuminsoniy va milliy axloqni qonuniyatlari, tamoyillari, tushunchalari, mezonlari, talablariga amal qilish; pedagogik jarayon va pedagogik faoliyatning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarga binoan ularni oydinlashtirish, aniqlashtirish; umuminsoniy va milliy axloqni qonuniyatlari, vazifalari muallimning o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar, maktab raxbarlari bilan muomala-munosabatlarida namayon bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda, pedagogik mehnatning samaradorligida namayon bo'lishi kerak.

Alisher Navoiy o'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar maktabdorlar to'g'risida gapirar ekan, muallim o'z shogirtlarini va ta'lim berayotgan fanini sevishi zarur, deydi. O'ziga ham o'quvchilariga ham talabchan bo'lishi lozimligini uqtiradi. O'qituvchi jamiyatda obro'yli inson, uni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligini uqtiradi. Alisher Navoiy o'z zamonasidagi maktabdorlar(muallimlar) haqida gapirib ular bolalarga jafo qilishi, azob berishi, kaltaklashga o'rganib qolishganini tanqid qiladi. Ular toshbag'ir, darg'azab gunohsizlardan achiqlanishga odatlanishgan. Muallimlardagi bu salbiy jihatlar bolalarning tabiati, fe'l-atvori, fahm-farosati, turli-tumanligi ta'sirida vujudga keladi, deb hisoblaydi. Navoiyning fikricha ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa to'da bolalarga ilmu adab o'rgatadi. Bu jarayonda muallim ko'p aziyat chekadi, mashaqqatlarni boshidan kechiradi. Shuning uchun shogirtlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim.

O'qituvchilik kasbi – axloqiy xarakterga ega bo'lgan insonparvar kasblardan biri. O'quvchilarga insoniy munosabatda bo'lish maktab o'qituvchisi faoliyatining asosiy tamoyili hisoblanadi. Bu o'qituvchidan bolalarni sevish, ularning qadr- qimmatini hurmat qilish, sho'xliklariga bardoshli ularni jismoniy va axloqiy majruh etuvchi narsalarga murosasiz bo'lishni talab etadi. Muallimning odob -axloqi, insonparvarligi bolalarning kelajagi uchun g'amxo'rlik qilish, ularni hayotda, ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlashga intilishida namoyon bo'ladi. Hushyorlik , pedagogik muomala, diqqat –e'tiborli bo'lish, bolalarni sevish, ularga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchini anglash; mas'uliyatli talabchan va adolatli bo'lish; bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik kabilar o'qituvchiga xos kasbiy axloqiy fazilatlaridir. O'rganilgan ilmiy-pedagogik manbalar shundan dalolat beradiki, bo'lajak o'qituvchilar da kasb odob fazilatlarini shakllantirish hozirgi kundagi dolzarb muammo bo'lib, pedagogika fani da bu muammoning yechimiga yetarlicha e'tibor berilmagan.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.A. Mavlonova , N .Raxmonqulova - Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiyasi va ntegratsiyasi T.: G'.G'ulom 2013.
2. N.A. Muslimov , M. Usmonboeva , M. Mirsoliyeva — Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik —O'UM Toshkent -2016
3. www. Pedagog.uz

